

## **QO'QONDA HAM TADBIRKORLAR KENGASHI TASHKIL ETILDI**

"Qo'qon" erkin iqtisodiy zonasida joylashgan "Qo'qon Beysicles" MChJda viloyat hokimi Xayrullo Bozorov viloyat prokurori Baxtiyor Ismoilov bilan Qo'qon shahrida turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar bilan uchrashdi.

Viloyat rahbari bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish asosiy vazifa ekanligini qayd etib, Marg'ilon va Farg'ona shahridagi kabi Qo'qonda ham Tadbirkorlar kengashi tashkil etilganini ma'lum qildi.

Ushbu Kengash tadbirkorlarning eng yaqin ko'makchisi bo'lib, ularning loyihalarini amalga oshirish yo'lida samarali faoliyat olib borishi ta'kidlandi. "Qo'qon" texnoparki tashkil etilayotgani, erkin iqtisodiy zonada ham tadbirkorlarning yangi loyihalari bilan ishtirok etishi, ular uchun katta imkoniyatlar borligi bildirildi.

Shundan so'ng Qo'qon shahri hamda Uchko'prik tumanidan kelgan 50 dan ziyod tadbirkorlarning faoliyatlariga doir masala va murojaatlari eshitildi.

Xitoylik investorlar qo'qonlik tadbirkorlar hamkorligida besh yulduzli mehmonxona qurish, avtomobillar uchun akkumulyatorlar ishlab chiqarishni tashkil etish loyihalari taqdimotini o'tkazdi. Qabulda tadbirkorlar ko'plab yangi yo'nalishlarda loyihalari borligini bildirib, ularni amalga oshirish borasidagi masalalarini aytib o'tdi.

### **Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-10-05 09:03:02